



YUNON MIFOLOGIYASIDA XUDOLAR TALQINI

Usmonov Zuhriddin Mirtemir o'g'li

Mustaqil tadqiqodchi

Usmonova Mohinur Hansan qizi

SamDU magistranti

Gmail: usmanovamohinur043@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18053096>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 22-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 25-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

mif, xudolar, yunon miflari, sav, Xaos, Kronos, Zevs

ABSTRACT

Ushbu maqolada mifologik dunyo qarash va miflar haqida fikr yuritiladi. Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bu miflar bo'lib, ular hozirgi kungacha insonlarni hayratga solib kelmoqda. Bundan tashqari maqolada miflar, miflarning yaratilish sabablari, mifologik dunyoqarash va obrazlar, ularning o'rganilishi shuningdek turli zamon va makonlarda yaratilgan miflarning o'xshashliklari bundan tashqari Yunon miflari va xudolari, bir necha miflar talqini eng kichik va o'rganilish jihatdan kam murojaat qilgan miflar haqida fikr yuritiladi. Qolaversa miflarni o'rgangan olimlar haqida ham o'z qarashlarimizni ko'rishimiz mumkin.

Miflar qadim zamonlardan insonlarni hayratlanishga, ishonishga, zavq olish va o'rganishga majbur etgan qimmatli manbaalardir. Insonlar aqlini tanib, hayotni tushuna boshlabdiki borliqni tushunish va anglashga ehtiyoj sezganlar. Ular tabiiy ofatlar (yong'in, suv toshqini, chaqmoq va momaqaldiraq, yomg'ir va qor) oldida ojiz qolishgan va bularning barchasini ilohiy bir kuch egasi qilayotganiga ishonishgan, ularni tushunishga harakat qilishgan. Qadimgi odamlar olam to'grisidagi boshlang'ich tasavvurlari olamning paydo bo'lishi, insonning yaratilishi, hayvonot va o'simlik dunyosining yuzaga kelishi tabiiy jismlarning paydo bo'lishi haqidagi qarashlari mif va afsonalarning yaratilishi haqida dastlabki tasavvurlarni o'rtaga tshladilar. Mif bu qadimgi odamlarning olamga bo'lgan ongsiz hissiy munosabati bo'lib tabiat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tushunishga bo'lgan eng birinchi tasavvurlar jamlanmasidir. Demak har qanday mif borliqni tushunishning eng sodda ko'rinishidir. M.I.Steblin – Kamenskiy mif tabiatini izohlar ekan: Mif bu voqelik bo'lib, u qanchalik haqiqatga zid bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyda ayni haqiqat deb qabul qilindi,– deydi.

Ta'kidlash joizki, insonlar ishonmagan narsalar butun borliqqa tarqalamagan va yoyilmagan bo'lardi ma'lum hudud bilan cheklanardi xolos. Mifni esa O'rta Osiyo xalqlari yunon, misr, afrika, hind xalqlarida ham uchratamiz. Qadimgi odamlar qalbida yaxshilik va yomonlik tuyg'ulari shakillana boshlagan davridayoq bularni miflarga singdirishga harakat qilishgan. Shuning uchun ham miflarda ezgulik va yovuzlik, urush va tinchlik kabi tuyg'ular shakillantirilgan. Bu kuchlar qarama qarshi qo'yilgan va har birining o'z xudosi yoki ilohi

bōlgan. Qarama qarshi kuchlarni tushunish, borliqni anglash birmuncha qiyin kechgan ammo tushunishga intilishgan va miflarni yaratishgan. Qadimgi insonlar turli hududlarda tarqoq qabilalar holida yashaganlar va har bir hududining o'ziga xos mifologik dunyoqarashi va miflari shakllangan. Mifologiya sohasiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan Yunon mifologiyasi bizlarni turli yovuz kuchlariyu xudolari bilan hayratga solib kelmoqda. Qadimgi yunonlarning ko'p xudolari bo'lgan va ularga siginishgan. Xudolar tog'larda, o'rmonlarda, daryolarda va buloqlarda yashaydi deb tasavvur qilishgan. Yunonlar uchun har bir hodisaning o'z xudosi bo'lgan. Qadimgi yunonlar yomg'ir yogmaganligini, hosilning yaxshi bo'lmaganini ham xudolarning ishlari deb bilishganva bunda xudolar+ning qarg'ishiga uchradik deb tushunishgan,turli marosimlar o'tkazishgan. Bu marosimlarni O'rta Osiyo xususan Zardushtiylilik dini miflarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: Sust xotin. Sust xotin marosimi yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazilgan(hozirda ham o'tkaziladi).

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqotda mif tushunchasining kelib chiqishi, mazmun-mohiyati va tarixiy rivojlanishini yoritishda qadimgi va zamonaviy ilmiy manbalar asosiy material sifatida tanlandi. "Mif" atamasi yunoncha mythos- rivoyat, afsona, asotir ma'nolarini anglatishi haqidagi ilmiy qarashlar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi. Miflarni ilmiy o'rganish Yevropada XVII asrda shakllanib, bu jarayonda mifologik maktablar vujudga kelgani, miflarning tabiati va genezisi borasida konseptual qarashlar yuzaga kelgani tahlil qilindi. Xususan, fransuz faylasufi Bernard le Bovier de Fontenelle miflarni qadimgi inson tafakkurining mahsuli sifatida baholagan bo'lsa, italiyalik olim Giambattista Vico miflarni poetik nutqning arxaik shakli sifatida talqin qilgan. XIX asrda nemis olimlari Johann Gottfried Herder, August Wilhelm Schlegel va Friedrich Schlegel asarlarida ham mifologik dunyoqarashlarning badiiy va falsafiy talqinlari keng o'rin olgan. Shu bilan birga, miflarni ilmiy o'rganishda o'zbek olimlarining qarashlari ham material sifatida jalb etilib, K.Imomov, O.Safarov, T.Mirzayev, A.Baymiradov, S.Qasqabasov va M.Jo'rayevlarning ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'atit turk asarida mif "sav" atamasi bilan izohlangani mif haqidagi ilk nazariy qarashlar Markaziy Osiyoda shakllanganini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi yunon mifologiyasidagi xudolar talqinini mazmunan ochib berishga yo'naltirildi. Qadimgi yunonlarning ho'kiz va ilon timsoliga bergan ramziy ma'nolari, yovuz kuchlar sikloplar, gigantlar va yuz qo'lli maxluqlar haqidagi tasavvurlari tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Yunonlarda xudolarning dastlab qiyofasiz, keyinchalik esa inson qiyofasida, jumladan ayol timsolida tasavvur etilishi mifopoetik tahlil orqali izohlandi. Gegata, Aid, Xaos, Geya, Uran, Kron va Zevs kabi xudolar haqidagi miflar strukturaviy va interpretativ metodlar yordamida tahlil qilinib, ularning kosmogonik va axloqiy vazifalari ochib berildi. Xaosdan xudolar tarqalishi, Geyaning Uranni yaratishi, Kronning hokimiyatni egallashi va Zevsning oliy xudo sifatida maydonga chiqishi haqidagi miflar qiyosiy yondashuv asosida talqin qilindi. Shuningdek, o'lim va nargi dunyo haqidagi qarashlar, dafn marosimlarining mifologik ildizlari Misr mifologiyasi bilan qiyoslab o'rganildi. Natijada yunon mifologiyasida xudolar talqini nafaqat diniy e'tiqod mahsuli, balki qadimgi inson tafakkuri, dunyoqarashi va poetik tasavvurining murakkab sintezi ekanligi metodologik jihatdan asoslab berildi.

Muhokama va natijalar

Kuzatishlarimiz asosida Yunon Mifologiyasi ko'p xudolikka asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa Yunon panteonini hosil qiladi. Yunon panteoni bu yunon xudolarining jamlanmasidir. Yunon mifologiyasi boshqa xalqlarning miflaridan xudolari anchayin ko'pligi, va asosan insonning his tuyg'ulari ham namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yunon miflari birgina Yunonistonda emas balki butun G'arb sivilizatsiyasiga anchayin chuqur ta'sir ko'rsatgan. Haykaltaroshlar va rassomlar xudolar va qahramonlarning qiyofasini yaratishi esa bizga ularni anchayin mashhur qildi. Shunisi ahamiyatliki yunon miflarida inson va xudolar umumiylikni hosil qilishgan. Hattoki Zevsning oddiy ayol bo'lgan Alkmenaga uylanishishi hamda qahramon odamlar bo'lgan Ifikl va Geraklning tug'ilishi ham buni ko'rsatadi. Bundan tashqari chorvachilik va cho'ponlar homiysi, sanat, aql, tushlar, yolg'on, qasos kabi inson bilan bog'liq holatlarni xudolar timsoliga singdirishga harakat qilganligini ko'ramiz.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yunon mifologiyasi qadimgi yunonlarning dunyoqarashi, e'tiqodi va madaniy merosining yorqin aksidir. U nafaqat xudolar, qahramonlar va afsonaviy haqidagi hikoyalarni o'z ichiga oladi, balki insoniyatning qadimiy savollariga hayotning mazmuni, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, insonning o'z taqdiriga munosabati kabi masalalarga ramziy javoblar beradi. Bugungi kunda ham yunon miflari adabiyot, san'at, falsafa va pop-madaniyatda o'z ta'sirini saqlab kelmoqda. Shunday qilib, yunon mifologiyasi nafaqat tarixiy meros, balki hozirgi zamon madaniyati bilan uzviy bog'langan tirik an'anadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K.Akilova, I. Abdurahmonov " Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar" Toshkent 2016.
2. Brenes E.M The Myths & legends of Ancient Greece and Rome - Amsterdant- New York. 2009. P-31.
3. Ôrayeva.D, Otajonova. M, Nurullayeva. S "Mif va badiiy ijod" o'quv qo'llanma. Fan Ziyosi nashriyoti 2024.
- 4.Николай Альбертович КУН ҚАДИМГИ ЮНОН АФСОНА ВА РИВОЯТЛАРИ Рус тилидан Пошали УСМОН ва Фазлиддин ШУКУР таржимаси. "Зарафшон" нашриёти, Самарқанд, 2005, 250 бет. «Зарафшон» нашриёти
5. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.7.